MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTISHNING METODIK TA'MINOTI

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i05.096

Achilova Sohiba Xamidovna
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: Mamlakatimizda mustaqillik yillarida sog'lom avlodni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzi asosida ularni ma'naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasidagi nazariy-metodik asoslari, zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishning turli innovatsion usullari yordamida olib borilmoqda. Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish masalalari to`qrisida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: malaka, ko'nikmalar, bilim, qobiliyatlarini rivojlantirish, мaktabgacha tarbiya yoshi, maktabga tayyorlash, ta'lim-tarbiyaning muammolari

DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES IN PRESCHOOL CHILDREN

Achilova Sokhiba Khamidovna
Kokand State University

Abstract: In our country, since independence, theoretical and methodological foundations for raising a healthy generation, shaping them into spiritually and physically mature individuals through a healthy lifestyle, have been developed using various innovative methods for organizing physical education lessons in preschool educational institutions in a modern context. This article examines the development of physical skills in preschool-aged children.

Keywords: development of skills, knowledge, abilities, preschool age, preparation for school, educational problems

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish modelning maqsadi etib belgilandi. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar aniqlashtirildi:

1) maktabgacha talim yoshidagi bolalarni jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida loyihalashtirish;

2) maktabgacha talim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bolalar faoliyatlarini tashkil etish;

3) maktabgacha talim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlanganlik natijalari monitoringini amalga oshirish.

Maktabgacha ta`lim va tarbiyaning davlat standarti, O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini sport jihozlari va reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me’yorlari modelning didaktik imkoniyatlari sifatida tanlandi.

Pedagogik jarayon, texnologiyalar, vositalar va tamoyillar maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish tizimini tashkil etdi.

Modelda kompetensiyaviy, faoliyatli va refleksiv yondashuvlar asosida tarbiyalanuvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish ko‘zda tutildi. Modelda turli ta’lim shakllaridan, jumladan bolalar turizmi turlari (dam olish va ko‘ngil ochish maqsadidagi turizm, dam olish va sog‘lomlashtirish maqsadidagi turizm) ni tashkil etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta’im yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish mazmuni xalq pedagogikasida mavjud milliy harakatli o‘yinlar asosida boyitilishi zarur.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarini rivojlantirish jarayonida hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda ikki xil yondashuv ko‘zda tutiladi.

1. Jismoniy harakatlarni egallash maqsadida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda foydalaniladigan texnologiyalar (shaxsga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari: muammoli ta’lim, interfaol ta’lim, o‘yin texnologiyalari, kompyuter ta’lim texnologiyasi, individual ta’lim texnologiyasi)

2. Bolalar bilan o‘tkaziladigan harakatli o‘yinlarni takomillashtirish maqsadida foydalaniladigan texnologiyalar. Jumladan, “Qush uchdi”, “Ovchilar va quyonlar”, “Jirafa”, “To‘dadan qolma”, “Xo‘rozlar jangi”, “Zovurdagi bo‘ri”, “Tushib qolma”, “Tez ol, tez qo‘y”, “Buyumlarni almashtir”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Qaysi guruh tez to‘planadi?”, “Ko‘prik”, “Qo‘shningni quvib yet”, “Kim tezroq gardishni (obruch) yumalatadi?”, “Kimni aytsam, shu koptokni tutadi”, “To‘xta”, “Ovchilar va hayvonlar”, “Kim eng mergan?”, “Ko‘z bog‘lash”, “Kim arqonni tezroq o‘raydi?”, “Qushlar parvozi”, “Yerdan baland”, “Meni top”, “Qopni chuqurga tushir”, “Mo‘ljalni poyla”, “To‘siqli yo‘llardan o‘tamiz”, “Bo‘sh o‘rin”, “Bir doiradan ikkichi doiraga sakrash”, “Kartoshka ekamiz”, “Chavandozlar”, nomli harakatli o‘yinlarini tashkil etishda hamkorlik ta’limi texnologiyalarining jamoada, kichik guruhda,

juftlikdagi shakllaridan foydalanish maqsadga mufoviq. Bu shakllardan foydalanish hamkorlik ta’limi texnologiyalari tamoyillari va talablari asosida amalga oshirildi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarini rivojlantirish jarayonida “Asalari galasi” metodi, “Barcha omillarni hisobga ol” (Baho) metodi, “Guruhlar ishi”, “Rolli o’yin, “Juftliklar ishi”, “Beshinchisi (oltinchisi, ettinchisi,...) ortiqcha” metodi “Vidio topishmoq” metodi, “Mosini ayt” metodi, FSMU metodi kabi interfaol metodlardan foydalanish va qo’llash muammolariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Interfaol metodlar asosida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ishlanmalaridan na’munalar keltirilgan.

Tadqiqot doirasida 6-7 maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun harakatli o‘yinlar majmuasi ishlab chiqildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

6-7 maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun harakatli o‘yinlar majmuasi

№	Harakatli o‘yinlar, URM va noan’anaviy gimnastika	O‘yinni davomiyligi	Me’yori	Dam olish oralig‘i	Xafta kunlari
Egiluvchanlik sifatini rivojlantirish uchun					
1	URM majmuasi, kallanetika va bodifley	5-6 daqiqa	1 marta	1-1,5 daqiqa	Chorshanba
	Jirafa	5-6 daqiqa	2 marta	2-2,5 daqiqa	
	Ko‘prik	5-7 daqiqa	1 marta	1,5-2 daqiqa	
Chaqqonlik va tezkorlik sifatlarini rivojlantirish uchun					
2	URM majmuasi, streching va yoga	5-6 daqiqa	1 marta	1-1,5 daqiqa	Juma
	Bo‘sh o‘rin	7-8 daqiqa	1 marta	1,5-2 daqiqa	
	Bir doiradan ikkichi doiraga sakrash	5-6 daqiqa	2 marta	1,5-2 daqiqa	
	Kartoshka ekamiz	5-6 daqiqa	1 marta	1,5-2 daqiqa	

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalariga oid tajriba-sinov ishlari samaradorligi masalalari maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodikasi va tajriba-sinov ishlari natijalari bayon qilingan. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlari uchun asoslovchi va ta’kidlovchi bosqichlari belgilandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy sifatlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida ijtimoiy kompetentsiyalar asosida mezonlar ishlab chiqildi. O`tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligini aniqlashda bolalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi, ularda jismoniy sifatlarni tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari yuqori, o‘rta, past darajalarda aniqlandi.

Tajriba-sinov natijalari quyidagi ishlab chiqilgan mezonlar asosida tahlil qilindi va ko‘rsatkichlar aniqlashtirildi.

Yuqori daraja. Jismoniy sifatlarga egalik (chaqqonlik, epchillik, ziyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik shu bilan birga gavdani tik tutish malakalarini oshirish) qiladi, uni faoliyatida qo‘llash imkoniyatiga ega (yuqori daraja). Jamoada o‘zaro yordam, tashabbuskorlik, faollik ko‘rsatish; milliy va madaniy qadriyatlarni bilish va ular bilan g‘ururlanish; topshiriqlarni bajarishda qat’iyat va sabr-toqat bilan amal qiladilar.

O‘rta daraja. Bolalar jismoniy sifatlarni tarbiyalanganligi ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarining mohiyatini qisman anglaydilar. Tashabbuskorlik va faollik ko‘rsatishga harakat qilish zarurligini anglab yetsalarda, biroq ularda passivlik kuzatiladi. Natijada bu haqda fikr-mulohazalarni bildirishga qiynaladilar. Jismoniy sifatlarga egalik (chaqqonlik, epchillik, ziyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik shu bilan birga gavdani tik tutish malakalarini oshirish) kuzatiladi, uni faoliyatida qo‘llash imkoniyatiga ega (o‘rta daraja).

Quyi daraja. Topshiriqlarni bajarishda faollik va tashabbus ko‘rsatish zarurligini anglamaydilar. Jismoniy sifatlarga egalik (chaqqonlik, epchillik, ziyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik shu bilan birga gavdani tik tutish malakalarini oshirish) ko‘rsatkichlari kuzatilmaydi, shu bois bolalar uni faoliyatida qo‘llash imkoniyatiga ega emas (past daraja).

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni jismoniy sifatlarni tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan mezonlar asosida 310 nafar tarbiyalanuvchilar bilan o‘tkazilgan dastlabki tajriba-sinov natijasi ko‘rsatkichlari (3-jadval)da aks ettirilgan.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan tarbiyalanuvchilarning tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanishi

3- jadval

Tajriba-sinov ob'yektlari	Umumiy respondentlar soni	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Namangan viloyatidagi MTTlarda	110	58	52
Farg‘ona viloyatidagi MTTlarda	104	54	50
Sirdaryo viloyatidagi MTTlarda	96	48	48
Jami:	310	160	150

Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining boshidagi statistik ko‘rsatkichlar (4-jadval)da aks ettirilgan.

4-jadval

Respondent-bolalarning jismoniy sifatlarni rivojlanganlik darajasi (tajriba boshida)

Tajriba bosqichi	Respondent-bolalarning umumiy soni n1,2= 310 nafar	
	Tajriba guruhlari 160 nafar	Nazorat guruhlari 150 nafar

	Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba boshida	31	68	61	30	69	51

Xulosa. Demak, jadvaldan ko‘rinadiki tajribaning dastlabki o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari orasida farq deyarli sezilarli emas. Bu o‘z navbatida, ilmiy tadqiqot ishi muammosining dolzarbligini aks ettiradi.

Tajriba-sinov ishlari olib borilayotgan tajriba guruhida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida bolalar faoliyati turlari (ertalabki badantarbiya; mashg‘ulotlar; mustaqil faoliyat; o‘yinlar; sayr; ekskursiya, bolalar turizmi va h.k)ga kompleks yondashildi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda tavsiya etilayotgan (“Kim chaqqon”, “Quvnoq davra”, “Men qandayman?”, “O‘g‘il bola-qiz bola”, “Ezgu ishlar xaltachasi”) kabi metodikalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarining mavjud shart-sharoitlariga, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi aniqlandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy sifatlarini tarbiyalanganlik darajasi sinov uchun tavsiya etilgan metodikalar va yuqorida ko‘rsatilgan mezonlar asosida aniqlandi.

Ta’kidlovchi tajriba davrida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy sifatlarini tarbiyalanganlik darajasini yorituvchi ma’lumotlar tahlil qilindi. Ma’lumki, asoslovchi va ta’kidlovchi tajriba jarayonida qo‘lga kiritilgan natijalar umumlashtirilsagina, har ikki bosqichda erishilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori

2. Kayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T:. 2013 y

3. Kodirova F.R., Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va va metodikasi. T. ”ISTIQLOL, 2006 y. O‘quv qo‘llanma.

4. Kodirova F.R. “Nutq o‘stirish metodikasi” U UM T.; 2012 yil.(elektron).

5. Kodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruxiy omillari. - Sariogoch. 1998 yil.

6. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo‘yicha trening moduli. T.: 2017-y.

7. Maktabgacha ta’lim muassasasining namunaviy Ustavi. Maktabgacha ta’lim j., 2008. 1-son. -9-15 b.

8. Maktabgacha ta’lim xodimlarining an’anaviy avgust kengashlari sho‘’ba va yalpi yiqilishlarini tashkil etish hamda o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar. Maktabgacha ta’lim j., 2007. 7- son. -2-4 b.

9. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Bolalar bog‘chasida tarbiyaning mazmuni (Ikki qismli. Birinchi qism. V.I.Loginova va P.G.Samorukova tahriri ostida. Tuzatilgan va to‘ldirilgan nashridan tarjima. - T.: O‘qituvchi, 1991. - 156 b.